



IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA HUDUDIIY INVESTITSION MUHITINING AHAMIYATI

Gapparov Faruk Abdukaxarovich

*O'zbekiston Respublikasi
sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat-
xususiy sheriklikni rivojlantirish
bo'limi boshlig'i*

Investitsiya muhiti (yoki investitsion muhit) – juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammolar va masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Investor tomonidan ma'lum bir davlatga investitsiya qilishning qulay va noqulay tomonlari baholanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi¹.

Ijobiy investitsion muhitni yaratish masalasida iqtisodiyotning globallashuvini asosiy jarayon sifatida talqin qilish va buning natijasida investitsion resurslarga ega bo'lish ko'lamining kengayishini, o'z navbatida esa, investorlar o'rtasida ham raqobatning kuchayishini nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Agar biz chetdan keladigan xorijiy investitsiyalar hajmini oshirishni istasak, albatta, investitsion muhitni, hududiy shart va sharoitlarni boshqalarga (raqobatchilarga) qaraganda yanada maqbul va yuqori darajaga chiqarishni, shuningdek, ichki (milliy) investitsiyalarni faollashtirish uchun ham «iqlim»ning qulay va ortiqcha riskdan holi bo'lishini ta'minlashga e'tibor qaratishimiz zarur.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda investitsiyalarning kirib kelishi innovatsion sohalarning rivojlanishiga va innovatsion tadbirkorlikning taraqqiy etishiga, investitsion iqlimga va investitsiyalash mexanizmiga bog'liqdir.


¹ Пинали Э. Инвестиционный климат и частный сектор. // Экономическое обозрение. 2005., №9, 42–43-с.

Tadqiqotlarning guvohlik berishicha, agar investitsiya muhiti yaxshi bo'lsa, bir tomondan, ichki investitsiyaning o'sishiga, mo'ljallangan xarajatlar tarkibida iste'molga nisbatan jamg'arishning ko'payishiga imkon beradi. Bu esa, iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lishining kafolatidir.

Mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarni o'rganish asnosida mazkur tadqiqotda hududlarning investitsion jozibadorligini ko'rsatuvchi omillar guruhlangani holda yagona tizimga keltirildi. Bunda asosiy guruhlar sifatida hududning kompleks ko'rsatkichlari aks etadigan ijtimoiy- iqtisodiy salohiyatni anglatuvchi nuqtai nazarlar va ilmiy-amaliy qarashlar umumlashtirilgan va klassifikatsiyalangan (1-jadval).

Yuqorida zikr etilgan rang-barang omillarning ijobiy tarzda konsentratsiyasi xorijdan investitsiyalarning faol kirib kelishiga imkon beradi. Bu esa, tabiiyki, qo'shimcha ish joylari, qo'shimcha daromad, iqtisodiyotning o'sishiga qo'shimcha imkoniyatdir. Bunga qo'shimcha eng muhimi – xorijiy investorlar o'zlari bilan nafaqat kapital olib kiradilar, balki o'z mamlakatlarida bo'lgan ilg'or bilim va tajribani ham olib keladilar. Bu ham mamlakatning kelgusi iqtisodiy o'sishiga imkon tug'diradi.

Bugungi kunda respublikamizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllaridan foydalanilmoqda. Ular quyidagi 1-rasmda aks ettirilgan.




1-rasm. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari²

² Nasirov E.I., Asamxodjayeva Sh.Sh. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2020. 77-79 betlardagi ma'lumotlar orqali muallif tomonidan erkin tayyorlandi.

Bundan ko‘rinib turibiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bilan bog‘liq munosabatlar negizi mamlakat ichidagi tarmoqlar va sohalarning qay darajada rivojlanayotgani bilan o‘lchanadi. Bu esa o‘z navbatida mamlakat investitsion jozibadorligini belgilab beruvchi omildir. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror bo‘lgan davlatlarga investitsiya oqimining vujudga kelishi tabiiy holat.

Dunyo miqyosida mamlakatlar o‘rtasida ko‘plab to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishiga guvoh bo‘lish mumkin.



2-rasm. Mamlakatlar tomonidan jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalari ko‘rsatkichlari 2023-yil holatiga ko‘ra (mln. AQSh dollarida)³

2023-yildagi holatga ko‘ra jahon bozorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning eng yirik salmog‘i AQSh davlatiga to‘g‘ri kelmoqda, jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 258 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. Bu esa bevosita ushbu mamlakatlarda investitsiya jozibadorligi bilan bog‘liq siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy sohalar faol tarzda kompleks rivojlanayotganini ko‘rsatadi (2-rasm).

Yuqorida bildirilgan tahlil va mulohazalarni umumlashtirgan holda ta’kidlash lozimki, modernizatsiya qilish jarayonlari kuchayayotgan bir sharoitda davlatning o‘rta va uzoq muddatli oraliqdagi investitsion strategiyasi orqali mamlakatga investitsion oqimni jadallashtirish, buning natijasida esa innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish va yangi ish o‘rinlari paydo bo‘lishi, shuningdek, mamlakat eksport salohiyatining sezilarli darjada o‘rishiga zamin yaratadi. Xorijiy investitsiyalarning yana bir muhim

³ <https://data.worldbank.org/> – Jahon bankining rasmiy web-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

jihati shuki, retsipient mamlakatlarning xalqaro integratsiya jarayonlarini yanada rivojlanishi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, mamlakat raqobatdosh mahsulotlar bilan jahon investitsiya arsenaliga chiqishi uchun zina-poyadir.